



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'YALAR



### O'ZING UCHUN O'ZGAR!

**Xazratova Sarvinozzon Ziyodulla qizi**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika  
fakulteti talabasi*

Dunyoda turli xil mavjudotlar mavjud. Ulardan asosiysi bu- inson. Insonlar hayotda aqliy boyligi sababli boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. Ammo insonlarning hayotida aqldan ozdiruvchi holatlar bo`lib turadi. Bular bevosita hayotimizdagi muammolardir. Masalan, ishdagi, o`qishdagi, shaxsiy hayotdagi va boshqalar. Aslida bu muammolar kichik bo`lib hayotimizga kirib keladi. Biroq, biz ularga yengil qarab, kattalashtirib yuboramiz.

Ba`zida esa hayotga yengil qaraganimiz bizga qo`l kelishi mumkin. Lekin nima bo`lganda ham, o`zimizga bo`lgan ishonchimizni yo`qotmasligimiz kerak. Nima uchun bunday deyapman? Keling, shu haqida gaplashamiz.

Dunyoda ikki turdagи insonlar bor . Birinchisi o`z qarashlariga ega. Boshqalar uchun rejalarini o`zgartirmaydigan insonlar bo`lsa, ikkinchi turdagilar esa buning aksi. Misol uchun odamlarga bor kuchini sarflab bo`sada yordam berish, o`z xohishlaridan boshqalarnikini ustun qo`yish kabilar. Nega ular bunday xususiyaga ega bo`lishadi desak, ular tabiardan shunday bo`lishadi va tashqi tarafdan zarba olishadi. Qaysidir ma`noda ko`ngillari sinadi. Nega o`zlarini ozgartira olmaydi degan savol tug`ilishi mumkin.

Ammo ular bunga harakat qilishadi va buning uddasidan chiqishi ham mumkin. Axir aytishadiku: “Hayotning o`zi tarbiyalaydi”. Menimcha, bu fikr to`g`ri. Chunki bu kabi vaziyatlarni ko`p kishining hayotida ko`raman. Shu bilan birga, o`zimning ham hayotimda uchrab turadi. So`ng bundan to`gri xulosa olaman va bu xulosalarim meni o`zimga bo`lgan ishonchimni oshiradi. Qilgan xatolarim ustida qayta ishlab , takrorlamaslikka chorlaydi. Hayot juda murakkab. Biz insonlar aqlga tayangan holat ish yuritishimiz darkor. Chunki murakkablikni yagona usuli tafakkurdadir. Yuqorida aytigelanidek, biz aqliy faoliyatimiz bilan farqlanamiz. Nima bo`lganda ham, xatolar bizni yiqitmaydi, ular bizni yana oyoqda mustahkam turishimizga yordam beradi.

Aslini olganda hammaning hayotida bunday vaziyat bir marotaba bo`lsa ham, bo`lishi kerak. Muvaffaqiyatning kaliti muvaffaqiyatsizlik bo`lganidek, hayot haqiqiy muallimdir va u har xil vaziyatda insonlarni sinaydi.

